



CERTIFICATE

for
participation

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna



FORS TAZKIRANAVISLIGIDA ZEBUNISO BEGIM

INTERNATIONAL CONFERENCE OF
SCIENCE & TECHNOLOGY



19.02.2026
DATE



FORS TAZKIRANAVISLIGIDA ZEBUNISO BEGIM

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zebuniso Begim obrazining fors tilidagi tazkira manbalarida ifodalanishi qiyosiy-tahliliy asosda o'rganiladi. XV-XX asr adabiy muhiti doirasida shakllangan biografik va adabiy manbalar tahlil qilinib, shoiraning shaxsiyati hamda ijodiy qiyofasi tazkirachilik an'analarida yoritiladi. Zebuniso Begim tasviri tarixiy shaxs, saroy malikasi va irfoniy shoipa sifatidagi ko'p qirrali talqinlarda namoyon bo'lishi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Zebuniso Begim,*

Zebuniso Begim XVII asr shoiralari ichida eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Uning shaxsiyati va ijodi fors tilidagi ko'plab tazkiralarda turlicha talqin etilgan ayrimlarida u zohida va orifa, boshqalarida esa ishqiy-irfoniy she'riyat sohibasi sifatida tasvirlanadi.

Tazkiralarda Zebunisoning nasabi, ta'lim-tarbiyasi va saroy muhitiga oid ma'lumotlar alohida qayd etiladi. U Avrangzebning qizi sifatida tilga olinadi. Mualliflar uning arab va fors tillarini mukammal bilgani, Qur'on tafsiri va hadis ilmidan boxabar bo'lganini ta'kidlaydilar. Ayrim tazkiralarda Zebuniso Begim "fozila, orifa, sohibi devon, malikai suxan" sifatida tasvirlanadi. Uning ilmiy salohiyati va she'riy mahorati ham bundan mustasno emas. Zebuniso Begim - o'rta asrda yaratilgan barcha tazkiralarda keltirilgan malikalardandir.

Fathulla Shoh Qojarning o'g'li, Mahmud Mirzoga oid bo'lgan "نقل مجلس" ("Naqli majlis" hij.1241/mil.1826) tazkisasi 30 ayollar sharhiga bag'ishlangan bo'lib, unda forsiyo'y hunarmand va shoira ayollar kelgan. Maxmud Mirzo asarning muqaddimasida, ushbu zamonda ayollar erkaklar tomonidan ko'p zulm ko'rsada, gohida parda ortidagi ayollar timsolida sharm-hayo va g'ayratni kuchliligini ularning she'rlaridan bilish mumkin bo'lgan, shu sabab ushbu asarni yaratib, uni majlis suhbatı deb nomlashga qaror qildim, - deydi. "Naqli majlis" boshqa tazkiralardan tekstologik jihatdan farq qiladi. Unda Fatxali Shoh qizlari, so'ng uning ayollari va keyin esa forsiyo'y shoira ayollar haqida gap ketadi. Asosan naql qilingan ayollar uning zamondosh yoki qarindoshlari bo'lgan. Mahmud Mirzo tazkirani tugatgach ham, ayollarga oid biror manba yoki bayt topsa, shu zahoti qo'lyozmaga ilova qilib kiritgan. Zebuniso Begimning 15 ming misralik devonini ko'rgach, asarga uning devonidan bir qancha ma'lumotlarni kirgizib qo'ygan.

Tazkirada Temuriy malikalardan Zebunisoga oid ba'zi ma'lumotlar alohida zikr etilgan.

"نشر عشق" Oshiqiy taxallusi bilan mashhur Xusaynqulixon Azim Obodiyning ("Nashtari ishq") nomli tazkirasida hij.1233 /mil.1818 yilda yaratilgan bo'lib, unda 1480 nafar shoir nomi alifbo tartibida kelgan. An'anaga asoslangan holda tazkira na't va hamd qismidan so'ng Abu Ismoil Abdulloh bilan boshlanib, Yusuf Belgiromiy bilan yakunlangan. Azim Xusaynqulixon mazkur tazkiraning muqaddimasida Obodan Akbarobodgacha yetti marotaba safar qilgani, safari mobaynida ko'pgina shoirlar bilan hamsuhbat bo'lgani, badihalar aytishgani va aynan shu damlarda ushbu tazkiraning yaratish niyati paydo bo'lgani haqida yozadi. Tazkirada ayollar tasnifi alifbo tartibida erkaklar zikri orasida kelib, 18 ta ayol ta'riflangan. Zebuniso Begimga oid ma'lumotlar 644 betda keltirilgan.

Muhammad Qudratulloh Gupomuyi "نتایج الافکار"²¹ ("Natoyij ul-afkor") (hij.1258/mil.1842) tazkirasida 539 nafar shoir haqida ma'lumot bergan. Tazkirada davr jihatdan o'tmishda yashagan shoirlardan to muallif zamonasigacha (Mir Aleyh Hamadoniyan Mir Yusuf Belgeromiya) bo'lgan qalam ahli haqidagi ma'lumotlar qamrab olingan. Tazkirada nomlar alifbo tartibida berilgan, ammo boshqa tazkiralardan farqli o'laroq ushbu, tazkirada ayollar zikri har bir harf oxirida kelib ayollarning ismi oldidan "Mo'sammot" deb sharh berilgan va bu uslub tazkiradan ayollarni osongina ajratib olishga juda qulay hisoblanadi. Zebuniso Begimdan 3 bayt (364-sahifa) da keltirilgan. Jami 14 ayol zikri va ularga oid 44 bayt keltirilgan.

Said Muhammad Siddiq Bahodir bin Hasan bin Xusayn Buxoriyning "شمع انجمن" ("Sha'mi anjuman" hij.1292/mil.1875) tazkirasida 971 nafar hind va fors shoirlari zikri kelgan. Shuningdek, o'n olti nafar ayol nomi ham keltirilgan bo'lib Zebuniso Begim 188 sahifada 43 bayti bilan sharhlanganini kuzatishimiz mumkin.

Zebuniso shaxsiyati XX asrda yaratilgan "پرده نشینان سخنگوی" tazkirasida ham zikr etilgan bo'lib, uning tuzuvchisi Moga Rahmoniy Zebuniso shaxsiy hayotiga oid qiziqarli faktlarni kiritadi. Unda zikr qilinishicha, Zebuniso oqila va dono, onasi tomonidan uch yoshidan boshlab Qur'oni Karimni davrining yetuk mutaxassilaridan o'rgangani, tasavvuf ilmiga qiziqqanligi, Lahur hokimi Oqilxonga muhabbat, ammo Oqilxonning fojeali o'limi sabab umrining oxirigacha turmush qurmagan hamda ijod bilan shug'ullangan²². Zebuniso zikr qilingan barcha tazkiralarda, uning sho'h shodon va hozirjavob bo'lganligini kuzatamiz. Masalan, xizmatkori uning yonida qimmatbaho oynani sindirib qo'yib, to'satdan chinni oynani sindirib qo'ydim, desa, Zebuniso Begim, tabassum qilib, juda yaxshi bo'libdi xudbinlikni ko'ruvchi asbob sindi, deb javob qaytaradi. Yana bir kuni Zebuniso bog'da sayr qilib gullarning go'zalligidan bahramand bo'lib:

²¹ Қаранаг: ۳۵۷-۳۵۳.ش. تهران ۱۳۶۳. ج ۲. تاریخ تذکره های فارسی، احمد گلچین معانی،

محمد قدرت الله گوپاموی.نتایج الافکار. تصحیح: یوسف بیگ باباپور.قم، ۱۳۸۷.ص ۲۳

²² ماگه رحمانی. پرده نشینان سخنگوی.باز نویسی فاطمه صادقی. تهران، ۱۳۹۳. ص. ۷۸-۹۳۰.

چهار چیز که دل می برد کدام چهار؟
شراب و سبزه و آب روان و ریو نگار

Ya'ni: to'rt narsa kayfiyatimni ko'taradi, sharobu sabza va oqar suvu yorning yuzi.
Shu fardni aytib tursa bog'da u tamon kelayotgan otasini ko'rib qoladi va tezda fardni ustomonlik bilan o'zgartiradi:²³

چهار چیز که دل می برد کدام چهار؟
نماز و روزه و تسبیح و توبه استغفار

Ya'ni, to'rt narsa qalbinga malhamdir, namoz u ro'za va tasbeh-u tavba.
Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, Zebuniso sho'x shaddod va o'ta mahoratli badihago'y bo'lgan. "تذكرة الخواتین" da Zebuniso Oshiq shoir bilan yozishgan javobiyalarni ham kuzatishimiz mumkin:

بلبل از گل بگذرد گر در چمن بیند مرا
بت پرستی کی کند گر بر همن بیند مرا
در سخن پنهان شدم مانند لو دد برگ گل
هر که دیدن میل دارد در سخن بیند مرا

Bulbul chamanda meni ko'rgach gulning bahridan kechadi,

Budparsat meni braxmanda ko'rsa nima qilsin?

Gul yaproqlarining isi kabi so'zda yashiringanman,

kimki meni ko'rmoqlik maylida bo'lsa, so'zlarimda (she'r) ko'rsin²⁴.

Bu yerda Zebuniso o'xshatishning tashbeh san'ati orqali she'rni go'zalligi bilan o'zini gul kabi o'ralganligini qalbiga ko'ngil solmoqchi bo'lgan inson uni qandayligini bilish uchun she'rlaridan qidirishi kerakligiga ishora qiladi. Zebuniso darhaqiqat umrining so'ngigacha she'r bilan yashagan buni yaqqol misoli sifatida "mening erim ham kitob, baxtim ham kitob hatto jannatim ham kitob" degan so'zlaridan ko'rishimiz mumkin. Zebunisoning hayot beshavqat bo'lib tezda o'tib ketib, muhabbatga yeta olmasdan, qarib qolganligi xususida "Pir shud ke Zebuniso" nomli ruboiysini kuzatishimiz mumkin:

بشکند دستی که خم در گردن یاری نشد
کور به چشمی که لذت گیر دیداری نشد
صد بهار آخر شد و هر گل به فرقی جا گرفت
غنچه باغ دل ما زیب دستاری نشد

Lola yuzli go'zal uchun sarflanmagan umr xayf ketadi,

Yorning bo'yniga uzatilmagan qo'l sinsin.

Yuzlab bahor tugab, har gul o'z joyini topdi,

Ammo Zebuniso qaridiyu unga xaridor topilmadi²⁵.

Bu misralarda qaysidir ma'noda Zebunisoning o'z hayoti ifodalanganligi seziladi.

²³ Ўша манба: Б. 87.

²⁴ محمد ملكالكتاب، تذكرة الخواتین. ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институтида сақланадиган №3478 инвентар рақамли кўлөзма нусха. Б.140

²⁵ Ўша манба: Б. 140.

Shuningdek, shoiraning yana bir mashhur g‘azali keltiriladi:

گرچه من لیلی صفا تم دل چو مجنون پرتو است
 سر به صحرا میزنم لیکن حیا زنجیر پاست
 بلبل از شاگردی ام شد همنشین گل به باغ
 در محیط کاملم پروانه هم شاگرد ماست
 در نهان به ظاهر گرچه برگ تازه ام
 حال من در من نگر چون رنگ رنگ سرخ اندر خناست
 دختر شاهم و لیکن رو به فقر آورده ام
 زیب و زینت بس همینم نام من زیب النساء است²⁶

Bu g‘azali juda mashg‘ur bo‘lib, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan:

Layli zotidan esamda, dilda Majnuncha havo
 Tog‘u tosh kezgum kelur, lekin yo‘lim to‘sgay hayo.
 Mendan o‘rgandiyu bo‘ldi gulga bulbul hamneshin,
 Mengadur parvona ham shogirdu, ishqimdur raso.
 Zohirimdir g‘azorang, ammo nehonim qon erur.
 O‘z ichida saqlagandek qip-qizil rangi xino.
 Shoh qizi bo‘lsamda, qildim faqr yo‘lin ixtiyor,
 Bas menga bu zeb-u ziynatim, otim Zebuniso²⁷

G‘azalda talmeh (Layli va Majnun), tashxis (gul va bulbul, parvona), tazod (shoh va faqr), tavzi’ (zeb, ziynat, Zebuniso – “z” harfi) kabi badiiy tasvir vositalaridan go‘zal poetik lavha yaratilgan.

Shuningdek, Zebunisoning quyidagi mashhur she‘ri ham tazkiradan o‘rin olgan:

من از دهن مار شکر می طلبم
 از خانه عنکبوت پر می طلبم
 از سینه نره شر شیر می طلبم
 از مردی برهن پای زر می طلبم

Men ilon og‘zidan shakar talabman,
 O‘rgimchak inidan men par talabman.
 Erkak sher ko‘ksidan sut talab qilsam,

Oyoqyalanglardan simzar talabman. (Sh.Shomuhamedov tarjimasi)²⁸

"تذکره الخواتین" da Zebunisoga oid 5 ruboiy, 4 g‘azal, she‘rlaridan misollar keltirilgan. "پرده نشینان سخنگوی" da esa, 8 she‘r va 3 g‘azal berilgan, bundan tashqari Zebunisoga oid ma‘lumotlarni "نشتر عشق" (644 bet), "نقل مجلس" (33 bet), "نتایج الافکر" (305 bet), "خیرات حسان" (18 bet), "حقیقه" (188-190 bet), "شمع انجمن" (191-192 bet), "صبح گلشن" (18 bet), "عشرت" (139 bet)larda kuzatamiz. "زیب المنشات" va "زیب التفسیر" Zebuniso qalamiga

²⁶ Ўша манба. Б.140.

²⁷ Қаранг: Батафсил маълумот учун Тўхтасин Жалоловнинг "Ўзбек шоирлари" китобида // Тошкент, 1997. Б.9-18.

²⁸ Ўша манба: Б. 17.

mansub bo'lgan ushbu uch kitob bugungi kunda o'ziga bir qator o'quvchilarni jalb qila olgan. Quyida Zebuniso foto lavhasi:



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жалолов.Т. Ўзбек шоирлари. Ғофур Ғулом нашриёти. Тошкент, 1970.
2. احمد گلچين معانى، تاريخ تذکره های فارسی، ج ۲. تهران ۱۳۶۳ ش. ص ۳۵۳-۳۵۷
3. محمد قدرت الله گوپاموی. نتایج الافکر. تصحیح: یوسف بیک باباپور. قم، ۱۳۸۷. ص ۲۳
4. تذکرة الخواتین . محمد ملک‌الکتاب، تذکرة الخواتین
шарқшунослик институтида сақланадиган №3478 инвентар рақамли қўлёзма
нусха. Б.140
5. ماگه رحمانی. پرده نشینان سخنگوی. باز نویسی فاطمه صادقی. تهران، ۱۳۹۳. ۷۸-۹۳۰
6. Sayfullaevna T. O. The arrival of Baburi queens at tazkira's [Электронный ресурс].